

TALIM SOHASIDA BOSHQARUV FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI, DAVLAT
MEXANIZMLARI VA ME'YORIY HUJJATLARI

M.F.Hakimovna

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Innovatison ta’lim” kafedrası mudiri, p.f.d.
professor*

M.U.Ne’matova

O.Sh.To’qumbetov

Raqamli iqtisodiyot fakulteti talabalari

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim tizimida huquqiy ta’limning ahamiyati va uning zarurligi so`nggi islohotlar misolida tushuntirilgan. Yurtimizda tom ma’nodagi huquqiy demokratik davlat – aynan yosh kadrlarimizning huquqiy madaniyati darjasiga bevosita bog`liqligi ochib berilgan.

Kalit so`zlar: Globallashuv, huquqiy madaniyat, katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, ta'lim va tarbiya jarayonlari.

Ta'lim samaradorligi bilan o'z o'rniga ega bo'lgan Finlandiya davlatining Milliy maktablar boshqaruvi raisi, professor Erkki Axo ta'lim jarayonini zamon talabida modernizatsiya qilishning ahamiyati haqida to`xtalib, “Globallashuv jarayoni va raqamli texnologiyalar mehnat bozoridagi ahvolni juda ham o'zgartirib yubordi, ijtimoiy va hududiy tengsizlik muammosi o'sish bilan xavf solmoqda, migratsiya an'anaviy madaniy tuzilmalarni zaiflashtirmoqda... Shuning uchun ham bizning tirik qolish strategiyamiz ta'lim manbalari va ilmiy tadqiqot ishlarimizga asoslangan holda ishlab chiqilmoqda” deya ta'kidlagan edi[1]. Bugungi XXI asrda ijtimoiy munosabatlar shu darajada tezlashdiki, buning natijasida insonlarning axborotlarni qabul qilishi, bu ijtimoiy munosabatlarga huquqiy idealistik kayfiyat bilan munosabatda bo`lishligi qiyinlashib bormoqda. Bu esa barcha insonlarning amaldagi huquq me'yorlari bilan talab darajasida tanish bo`lishligini taqozo etadi. Ayni vaqtda yurimiz ta'lim muassasalarida huquqiy ta'limning ahvoli qanday? Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va ularning huquqiy asosiga keng aholi vakillari qanday munosabatda bo`lishmoqda?

1997-yilda “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi” qabul qilindi, 2001-yil 4-yanvarda “O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o`rganishni tashkil etish to`g`risida”gi Prezident farmoyishi e`lon qilindi, 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to`g`risida”gi Prezident Farmoni, 2019-yil 20 –apreldagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo`yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to`g`risida”gi Nizomning qabul qilinishi, bularning barchasi aynan huquqiy savodxonlikni yuksaltirish, pirovardida mamlakatdagi keng ko`lamli islohotlarga

barchani o'z huquq va burchlari doirasida faol ishtirokini ta'minlash maqsadining huquqiy asosi hisoblanadi. 2001-yilgi Prezident farmoni asosida barcha ta'lim muassasalarida Konstitutsiyani o'rganish kurslari joriy qilindi.

Shiddatli islohotlar jarayonida jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish, har bir inson, u rahbar yoki oddiy kishi bo'ladimi, Konstitutsiya va qonunlarni, boshqalarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishi kundalik qoida va odatga aylanishiga erishish muhim sanaladi. Negaki, qonunlar ishlagandagina, ular yaxshi samara beradi. Qonunlar esa ularga rioya etilsa, rioya etilishi talab qilinsagina ishlaydi. Buning uchun hamma huquqshunos bo'lishi shart emas. Bugun jamiyatimizda har bir fuqaro, avvalo, o'z sohasidagi qonunlarga rioya etsin, qonunni chetlab o'tish degan fikrni xayolidan umuman chiqarib tashlasin, degan g'oya ilgari surilayapti. Negaki, davr har bir fuqaro faqat javobgarlikdan qo'rqib emas, balki ta'qiqlangan yo'ldan yurish yomonligini tushunib, o'sha yo'ldan yurmasligini, qoidalar ularning foydasiga ishlashini anglab, ularni hurmat qilish talabini qo'yimoqda.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o'zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o'zi taqozo etmoqda. Shuningdek, ta'lim muassasalarini boshqarish sohasida har bir rahbar xodimlar va professor-o'qituvchilar normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan o'z huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini bilishi lozim. Huquqiy ta'lim har qanday davlat, jumladan, O'zbekistonda ham kuchli va samarali huquqiy tizimni rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. 2019 yil 6 sentabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisida loyiha tashabbuskorlari qonun loyihasiga bir qator yangi normalar, tushunchalar va moddalar kiritishgan. Xususan, katta yoshdagilar ta'limi, maxsus ta'lim, inklyuziv ta'lim, yakka tartibda pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish, davlat-xususiy sheriklik, ta'lim sohasiga investitsiyalarni kiritish, sohada davlat nazorati, ta'lim muassasalarining o'zini o'zi baholashi, ta'lim ishtirokchilarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarliklari, ta'limda eksperimental, innovatsion faoliyat bilan bog'liq yo'nalishlar degan mutlaqo yangi norma va tushunchalar shular jumlasidandir.

Yangi tahrirdagi qonun loyihasida sinovdan o'tgan mukammal normalar saqlab qolinganda, ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlarining vakolatlari va ta'lim muassasalarining faoliyati erkinligini kengaytirishni nazarda tutuvchi yangi normalar va boshqa tushunchalar o'z aksini topmoqda.

Deputatlarning qayd etishicha, qonun loyihasining qabul qilinishi ta'lim tizimidagi mavjud muammolarni bartaraf etishga, soha ishini tubdan takomillashtirish va ta'limni xalqaro hamjamiyat bilan uyg'unlashgan holda olib borish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, fuqarolarning xorijda ta'lim olishi, chet elda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarning tan olinishi, shuningdek, ilk bor mamlakatda butun umr

ta'lim konsepsiyasining kiritilishi kabi masalalarning qonun loyihasi normalarida ilgari surilishi ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari tomonidan ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
- Ta'lim to'g'risidagi qonun, Farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qo'llanilmoqda.
- Lekin shu kunga qadar ta'lim va tarbiya jarayonlarini subyektlari tomonidan ushbu hujjatlarni amalda qo'llanilishining nazariy va amaliy jixatlari deyarli o'rganilmagan.

Bu holatlar ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan ta'limning normativ-huquqiy asoslarini har tomonlama nazariy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil etishni dolzarbligidan dalolat beradi. Mustaqillik yillarida Ta'lim to'g'risidagi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi, Bunda asosan, yangicha dunyoqarash, goya va mafkuralar xilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta'lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bolgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta'lim-tarbiya sohasida muhim o'rin tutadi. Bu borada e'tibor berilishi zarur bo'lgan vazifalar sifatida quyidagilarni aytib otish mumkin.

Birinchidan, mamlakatimizda demokratik jamiyat ko'rish vazifalarini amalga oshirishda ta'lim-tarbiyani tubdan isloh etish va uni modernizatsiyalashtirish muhim ro'l o'ynaydi.

Ikkinchidan, globallashtirish davrida o'qituvchining pedagogik jarayondagi asosiy vazifalari o'zgaradi. Uni boshqaruvchanlik faoliyatiga yangicha talablar qo'yiladi. Boshqarish - bu yonaltirish, vazifa qo'yish, o'rganish, yordam berish va qo'llab-quvvatlashni hamda maslahat berish, rahbarlik qilish, kuzatish, talab qilish, ko'rsatma berishlari o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyada donishmand va mutafakkirlarning, xalqimizning milliy ma'naviy qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyatga ega.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jaryonidagi o'zgarishlar tinglovchilar yoshlar oldiga ham muhim vazifa kuyadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to'plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog'liq.

Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg'unlashtirish tamoyili ta'limni tashkil etish va uning sifatini oshirishda davlat va jamiyatning ta'lim muassasalarini boshqarishda hamkorlikka erishishni nazarda tutadi. Ta'lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvi ta'lim samaradorligini oshirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, 20-moddaga qaraydigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi vakolatlari haqida gap ketadi.

Ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasining tasarrufiga oliy hokimiyat va boshqaruv idoralari tomonidan amalga oshiriladigan:

- ta'lim sohasida yagona davlat siyosati belgilash va amalga oshirish;
- ta'lim sohasida huquqiy boshqarishni amalga oshirish;

ta'limni rivojlantirish, uning moddiy-texnika jihatidan ta'minlash turlarini ishlab chiqish va ro'yobga chiqarish;

ta'limni davlat tomonidan boshqarilishining markaziy idoralarini shakllantirish va ularga rahbarlik qilish;

ta'lim muassasalari tashkil etish, ularni qaytadan tuzish va tugatish tartibini belgilash, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;

ta'lim to'g'risidagi hujjatlar namunalarini va ularni berish tartibini tasdiqlash;

ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiya qilish, ularga litsenziyalar berish tartibini, pedagogik va ilmiy kadrlarni attestiyadan o'tkazish tartibini belgilash;

ta'lim va fanni rivojlantirish respublika fondini shakllantirish;

pedagog kadrlar tayyorlashni tashkil etish vakolatlari kiradi.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz, ta'lim muassasalarida, huquqiy ta'lim-tarbiya hamda targ'ibot ishlarida mas'ul xodim va mutaxassislar o'z vazifalarini to'liq va kreativ yondoshgan holda bajarishlarini zamirida islohotlarimiz samarasi turganini his qilmog'imiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda huquqiy ta'lim: umumiy ko'rinish va muammolar, rivojlanish istiqbollari "Yangi O'zbekiston" gazetasi 21 Fevral 2023
2. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar
3. "Ta'lim iqtisodiyoti" M.F.Hakimova, F.S.To'rabekov Toshkent-2021